

**XALQARO MUNOSABATLAR SOHASIDA YANGI
TEXNOLOGIYALAR KONSEPTSIYASI VA
UNING HAYOTGA TATBIQ ETILISHI**

Xayrullayeva Aziza Yigitali qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
stajyor-o‘qituvchi.

Annotatsiya: Jamiyat va insoniyatning rivojlanib borishi uning imkoniyatlari har tomonlama o‘shishi natijasida insonlarning kundalik hayotiga juda ko‘plab yangiliklar kirib kela boshlagan. Bu kabi yangilanishlar esa, bugungi kunda rivojlanishning jadal bosqichiga yetdi. Ushbu maqolada ham raqamlashtirishning diplomatiya sohasiga kirib kelishi va takomillashishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Raqamlashtirish, yangi texnologiyalar, dastur, blokcheyn, digital diplomacy, e-gouvernement.

Jamiyat va insoniyatning rivojlanib borishi uning imkoniyatlari har tomonlama o‘shishi natijasida insonlarning kundalik hayotiga juda ko‘plab yangiliklar kirib kela boshlagan. Bu kabi yangilanishlar esa, bugungi kunda rivojlanishning jadal bosqichiga yetdi. Jumladan, insonning hayot tarzini yengillashtirish uchun yaratilgan va yaratilayotgan yangi texnologiyalarning chegarasi yo‘q va bu kabi yangiliklarni bugun turli sohalarda kuzatishimiz mumkin. Maishiy hayotdan tortib hukumatlar darajasida insonning harakatlarini osonlashtirish uchun kerakli va foydali tizimlar va texnologiyalar hayot tarziga uzluksiz kirib kelmoqda. Jumladan, mazkur tadqiqotning asosi hisoblangan hukumat darajasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, ularning rivojlanish bosqichlari va ularni bunday yuqori organlarda qo‘llash tajribasini o‘rganishni ham avvalo, yangi texnologiyalar konsepsiyasining tarixiga nazar solgan, ularning amaliyotda qo‘llangan dastlabki davrlarini o‘rganishdan boshlagan afzalroqdir.

Dastavval, raqamli texnologiyalar va raqamli diplomatiya tushunchalarini va ular orasidagi bog‘liqlikni ko‘rib chiqish lozim. Raqamli diplomatiya yoki elektron diplomatiya (inglizcha-digital diplomacy, e-diplomacy) tushunchasi- diplomatik vazifalarni hal etish uchun internet tarmog‘i va axborot- kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishni anglatadi. Raqamli diplomatiya doirasida yangi media, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar hamda global tarmoqlardagi shunga o‘xshash media maydonlar imkoniyatlaridan foydalaniladi.¹

Raqamli diplomatiyaning maqsadlari mamlakatning tashqi siyosiy faoliyatiga oid manfaatlarni oldinga surish, internet-televediniye, ijtimoiy tarmoqlar, mobil-aloqa va boshqalar vositalar orqali axborot targ‘ibotini amalga oshirish, ommaviy ongni shakllantirish orqali siyosiy elitalarning qarorlariga ta‘sir etish kabilar kiradi. Shu bilan birga, raqamli diplomatiya o‘zgaruvchan va rivojlanib borayotgan funksiyalarga ega. Davlat siyosatini ommalashtirish, siyosiy jarayonlarga imkon qadar xorijda faol fuqarolarni jalb qilish, mamlakatning ijobiy imidjini yaratish, obro‘cini oshirish, dolzarb muammolar yoki vaziyatlarni jamoaviy hal etish uchun xorijiy intellektual resurslarni jalb qilish shunday funksiyalar hisoblanadi. Bundan tashqari, u diplomatik xizmatlarga “ko‘chadagi odamlar” fikrini tinglash va shu asosda jamoatchilik fikrini tahlil qilish yoki ularning xatti-xarakatlari sifatini baholash hamda mamlakat va uning fuqarolari haqida tarqatilgan ma‘lumotni o‘rganishga imkon beruvchi aloqa vositasi, tabiiy ofatlar sodir bo‘lganda fuqarolar uchun “qutqaruv xizmati” kanali vazifalarni bajaradi. Bular qatorida raqamli diplomatiyaning vazifalariga muayyan siyosiy g‘oya, harakat va boshqalarni targ‘ib qilishga qaratilgan qisqa muddatli siyosiy g‘oya, harakat va boshqalarni targ‘ib qilishga qaratilgan qisqa muddatli siyosiy kompaniyalarni o‘tkazish, mamlakatning chet elda yashayotgan o‘z fuqarolarning diasporalari bilan aloqalar o‘rnatish vositasi bo‘lish ham kiradi.²

¹ Dunne, Tim (2001) ‘Sociological Investigations: Instrumental, Legitimist, and Coercive Interpretations of International Society’, Millennium: Journal of International Studies, 30(1): 67–91.

² T.M. Tursunmatov. Raqamli texnologiyalarning xalqaro munosabatlarda tutgan o‘rni va roli.: Article- December 2021. 721-722.

Raqamlashtirish jarayoni yoki, insoniyatning yangi texnologiyalar evolyutsiyasi natijasida ma'lumotlarni elektron shaklga o'tkazish ehtiyoji ham oshib borishi raqamli diplomatiyaning paydo bo'lishiga asos vazifasini o'tadi. Raqamli diplomatiyaning asosiy maqsadlaridan biri muayyan mamlakatning xalqaro ijobiy imidjini yaratish va uning obro'sini oshirish hisoblanadi.³ Bu jarayon esa bugungi kunda bevosita ijtimoiy tarmoqlar kengroq olib qaralganda butun dunyo internet tarmog'i orqali amalga oshiriladi. Muayyan mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ma'daniy, ichki va tashqi turistik salohiyati va erishilayotgan yutuqlari haqida ham internet orqali yoritib bo'rish, uni keng va butun dunyo jamoatchiligi e'tiboriga olib chiqish televediniye yoki radio yo'nalishi yozma matbuotdan ko'ra ularni online ravishda ommaga taqdim qilish eng ommaviy va natijador usul hisoblanadi. Mana shu nuqtayi nazardan, hukumat vakillari, davlat rahbarlaridan tortib muayyan bir soha vakillarigacha ijtimoiy tarmoqlarda o'z mamlakatidagi vaziyat va holatdan atrofdagilarni xabardor qilib, o'z fikr-mulohazalarini ochiq va pragmatik ifoda etib kelayotganligi ham raqamli diplomatiyaning bir ko'rinishi hisoblanadi.

Raqamli diplomatiyaning asosi, uning yaralishiga sabab bo'lgan omil bu- yangi texnologiyalar hisoblanadi. Yangi texnologiyalar inson hayotiga jadallik bilan kirib keldi va qaysidir ma'noda bugungi hayotning ajralmas qismiga ham aylanib ulgurdi. Ushbu rivojlanish bosqichi jamiyat hayotida tub burilishlar yasaganligi bilan ham ahamiyatlidir. Insoniyat hayoti uchbu evolyutsiya davomida raqamlashtirildi va uning hayoti raqamli texnologiyalarga bog'liq bo'lib kelmoqda. Yangi texnologiyalar ko'plab holatlarda o'sish suratlarini tezlashtirdi, hayotni jadallashtirdi, insoniyatning imkoniyatlari kengayishiga sabab bo'ldi, xizmatlar sohasi sifat jihatdan yaxshilanib, inson uchun og'ir hisoblangan kasblar soni va ulushi kamayib bordi. Ularning o'rnini yangi texnologiyalar egalladi va bu jarayon bugungi kunda ham davom etib kelmoqda. Mana shunday o'zgarishlar va hayotga kirib kelayotgan jadallik ortidan hukumatlar va

³ Bolgov R.V. «Politicheskoe znachenie texnologiy Web 2.0 (na primere deyatelnosti internet-soobshchestv). V knige «Negosudarstvennyye uchastniki mirovoy politiki: uchebnoe posobie dlya vuzov. Pod red. M.M. Lebedevoy i M.V. Xarkevicha». — M.: «Aspekt Press», 2013. 345-350.

turli korxonalar va tashkilotlar o'zlarining tuzilma va ishlash asoslarini “Raqamli inqilob”ga moslashtirishga harakat qiladilar.

Insoniyat tarixan rivojlanish bosqichlarini izchil ravishda bir qancha davrlarga bo'lishimiz mumkin. Bu jamiyat hayoti va uning tafakkuri o'sib borishi bilan va ibtidoiy insoniyat o'z hayotiga kiritgan yangiliklar bilan ham izohlanadi. Masalan: dastavval insoniyat uchun ov qurollarini yaratish va tabiatdan o'zlari uchun ozuqa topish va shu zaylda hayotga moslashib ularning tirik qolishlari, olovning ixtiro qilinishi, ibtidoiy to'daning bir-birlarini tushungan holatda jamoa va undan keyin jamiyatlarga birlashish hodisalari, va bu jarayonlar ortidan insoniyatning ilk qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishga harakatlari, bunga mos keladigan mehnat qurollarining yaratilishi, metallga insoniyat tomonidan ishlov berilishi, xo'jalik ishlarida inson kundalik hayoti uchun zarur bo'lgan narsalarni yaratib ulardan foydalanishlari, va insoniyatning sanoat inqilobi ya'ni sanoatlashgan, inson uchun dengiz va tog'larni oshib o'tish muammo bo'lmayotgan, insoniyat tomonidan qit'alar, koinot va tabiat olami chuqur o'rganiladigan, davr kirib keladi. Ushbu davrda insonlar o'zlari uchun qulaylik tug'diruvchi ko'plab texnologiyalarni yaratishga va jadallik bilan ulardan hayotda foydalanishga erishdilar. Mana shunday jadal rivojlanishning eng yuqori bosqichi bugun insoniyat yashab turgan davr hisoblanadi. Yangi texnologiyalar evolyutsiyasi ortidan bundan 50-60-yil ilgari inson uchun faqatgina orzu bo'lib tuyulgan hayot tarzi bugungi kun odamlarining kundalik hayot tarziga kirib, ular hayotining ajralmas bir qismiga aylanib ulgurdi. Insoniyat bu taraqqiyot bosqichiga erishinining muhim omillaridan biri bu- axborot hisoblanadi. Axborotlar insonlar tomonidan yaratilib, qayta ishlanib, tahlil qilinishi, ularning saqlanishi va jamiyatga ularni tarqatish natijasida shakllanib kelmoqda. Axborot va ma'lumotlar sanoatlashish davridan boshlab muhim, strategik manba sifatida qarala boshlandi va o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab rivojlangan dunyoning o'sishini belgilab beruvchi iqtisodiy-ijtimoiy omil bu moddiy emas aynan bilim va ko'nikmalar hisoblana boshlandi. Bilimning, ma'lumot to'plovchi va uni yaratuvchilarning jamiyatda nufuzi oshib bordi. Jamiyatda endi intellektual o'sishning qadr-qimmatini oshib borishi hodisasi kuzatildi.

Ilmiy-texnika va axborotlar endilikda nafaqat aloqa yoki ma'lumot manbasi balki foydali va qimmatli tovar, ijtimoiy ishlab chiqarishni, fan, madaniyatni tashkil etishni, va ularni boshqarishning so'zsiz va eng samarali vositasiga aylanib bormoqda. Informatika, kompyuter texnologiyalari, kommunikatsion vositalarning rivojlanib borishi natijasida raqamli diplomatiyaning asosi hisoblangan, axborotlashtirishga ehtiyoj ortib bordi. Dunyo fondida mavjud bo'lgan qimmatli manbalar ham electron shakllariga ega bo'lishi va ulardan dunyoning istalgan burchagidagi inson teng ravishda foydalana olish imkoniyatini yaratish ishlari ham amalga oshirildi. Shunday qilib axborotlashtirish, ma'lumotlarni qayta sifatli ishlash muammolari o'z yechimini topgandan so'ng, uning infratuzilmasi va bazasi shakllantirilgandan so'ng raqamlashtirish natijasida ushbu tadqiqot ishining asosi hisoblangan raqamlashtirish jarayoni amalga oshdi. Axborotlarni raqamlashtirish jarayoni mana shu zaylda amalga oshdi. Shu o'rinda axborotlarni raqamlashtirishning ham ya'ni jamiyat hayotida raqamli texnologiyalarning yaratilish tarixi va nazariyasiga ham alohida to'xtalib o'tish lozim. Tadqiqot ishining asosiy e'tiborga olinib o'rganilishi lozim bo'lgan qismi Yevropa qit'asida ushbu jarayonning asosi kelib chiqadi. Ya'ni aynan mana shu yerda yashagan olimlar jamoasi tomonidan raqamli texnologiyalarning asoslari yaratilgan edi. O'z o'rnida bular ham o'ziga xos bo'lgan bosqichlarga bo'linadi.

Dastlab, Yevropalik mashhur olim Leonardo da Vinchi (1452-1519) tomonidan o'rta asrlarda yaratila boshlangan edi. Ammo, o'sha vaqtda ushbu yaratilgan texnologiyalar insonlar ommasiga taqdim etilmagan⁴. Ularni faqatgina olimlarning qo'lyozma asarlari orqaligina bizgacha yetib kelgan. Uning kundaliklaridan ma'lum bo'lishicha olim tomonidan o'rta asrlarda 13 raqamli o'nli raqamlarni hisoblashga qodir bo'lgan g'ildiraklardagi yig'ish kompyuterining eskizini yaratgan. Mashhur amerikalik olimlar tomonidan ushbu eskizdagi mashinaning metallardan yaratilgan nusxasini yaratishdi va uni sinab ko'rishga muvaffaq bo'ldilar. Va bugungi kun olimlari tomonidan ushbu texnologiya to'laqonli olimning g'oyasiga muvofiq ekanligi tasdiqlandi. Ushbu texnologiyani zamonaviy raqamlashtirish texnologiyalarining asosi

⁴ <https://qomus.info/oz/encyclopedia/1/leonardo-da-vinchi>

va bugungi kun kompyuterlarining ilk ko‘rinishi sifatida ta’riflash ham mumkin. Chunki, olim yashagan davrda raqamlashtirish yoki yangi texnologiyalar tugul, insoniyat hali butkul o‘rta asr hayotida yashayotgan edi va bu tabiiy holat. Ammo Leonardo da Vinchi zamondoshlari orasida ilk marta insonlar kitoblar o‘rniga gadjetlar, otlar o‘rnida yengil mashinalardan foydalana olishiga ishongan, va ularni yaratish imkoniyati borligini isbotlagan olimlardan edi.

Ammo bunga ehtiyoj shunchalik kichik edi, Leonardo da Vinchi yashagan zamondan yuzlab yillar o‘tib yana bir yevropalik-nemis olimlaridan biri Vilgelm Shikardda⁵ (1592-1636) ham hisoblashga qodir bo‘lgan mashinani yaratish g‘oyasi paydo bo‘ladi. Uning hisoblash apparati 6 xonali o‘nlik sonlarni hisoblashga qodir edi. Olimda mazkur hisoblash mashinasini yaratish fikri mashhur polshalik astronom olim I.Kepler⁶ bilan tanishishi va uning qo‘lyozma ishlari bilan tanishib chiqishi ortidan tug‘iladi chunki, astronom olimning ishlarida asosan hisob-kitoblar bilan bog‘liq bo‘lib, bu kabi ishlar olimga qiyinchilik tug‘dirayotgan edi va Shikard ushbu qiyinchilikni bartaraf etish mumkin ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Uning izlanishlari ortidan 1623-yilda Keplerga Shikard tomonidan yozilgan xatda ushbu mashinaning rasmi va uning qay tarzda ishlashi tushuntirib berilgan edi. Ammo, vaqtlar dovoni ushbu mashinaning keying taqdiri haqidagi ma’lumotlarni saqlab qolmadi. Leonardo da Vinchi va Vilgelm Shikardning ixtirolaridagi umumiy jihat bu-ixtirolarning keng ommaga taqdim etilmasdan, faqatgina qo‘lyozma asarlar orqaligina hozirgi zamonga yetib kelganligi bo‘ldi.

Ammo vaziyat XVII asrda o‘zgaradi. Bu davrda sanoatlashtirish aynan Yevropada avj olgan bo‘lgan va yangi texnologiyalar ham ushbu davrga kelib anchagina rivojlanishga erishgan. Bu davrda yashagan mashhur fransuz olimi Blez Paskal(1623-1662) otasining soliqqa oid ishlarini yaratishda yordam berish maqsadida “Paskalin” mashinasini yaratadi.⁷ Va keying yillar davomida u mashinani yanada

⁵ Watson, Adam (1992) The Evolution of International Society: A Comparative Historical Analysis. London: Routledge.

⁶ Watson, Adam (1992) The Evolution of International Society: A Comparative Historical Analysis. London: Routledge.

⁷ <https://eurodomik.ru/postrojki/blez-paskal-pervaya-summiruyushchaya-arifmometr-i-summiruyushchie>

mukammallashtirishga harakat qiladi va mashinaning rivojlangan modellarini yaratishga muvaffaq bo‘ladi.

1673-yilda yana bir yevropalik, nemis olimi Velgelm Gotfrid Leybnits⁸ (1646-1716) 12 xonali o‘nli sonlarni qo‘shish va ko‘paytirishga ixtisoslashgan arifmetik qurilmani yaratadi. Va ushbu qurilma keyingi davrlarda yaratilgan kompyuterlarning asosiy qurilmasi sifatida ishlatila boshlandi.

Shu zaylda, XVII asrning ikki buyuk olimi o‘zlarining ixtirolari orqali keying davr raqamli texnologiyalarining rivojlanishi uchun yo‘l ochib berishdilar. Ularning ixtirolari natijasida bugungi kunda kundalik hayotda ishlatib kelinayotgan har bir dasturning yaratilish jarayoni bir-muncha ilgariladi. Bundan keyin olimlar jamoasi tomonidan ham juda ulkan ilmiy-amaliy ishlar bajarildi, ularning natijasi esa hozirda eng rivojlangan va rivojlanishda jadallik bilan davom etayotgan bosqich hisoblanadi.

Raqamlashtirish, elektronlashtirish singari tushunchalar ham XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib juda ham dolzarb bo‘lib qoldi. Raqamli jurnallar, kitoblar, ilmiy ishlar va kundalik dunyo miqyosida bo‘lib o‘tayotgan muhim yangiliklar ham masofa tanlamasdan internet orqali tarqalishi va dunyoning boshqa chekkasidagi insonning undan osonlik bilan boxabar bo‘lishi uchun bir necha sekundlar kifoya qila boshladi.

Shu o‘rinda XXI asrning boshida dunyoning eng yirik aktorlaridan biri hisoblangan Amerika Qo‘shma Shtatlarida raqamli diplomatiyaga o‘tish va uning kelajakdagi kuchiga ishonch paydo bo‘la boradi. “Arab bahori” voqealaridan buyon raqamli diplomatiya (digital diplomacy) atamasi butun dunyo bo‘yicha yangi va o‘rganilishi zarur bo‘lgan termin va fanning bir yo‘nalishi sifatida kelmoqda. Raqamli diplomatiya - diplomatlarning bir-biri bilan va keng jamoatchilik bilan muloqot qilish uchun raqamli aloqa vositalaridan (ijtimoiy mediadan) foydalanishlari hisoblanadi. Dunyo yetakchilari va diplomatlari o‘zlari ta’sir o‘tkazmoqchi bo‘lgan auditoriya bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri gaplashish va muloqot qilish uchun ijtimoiy tarmoqlardan, xususan, Twitter’dan foydalanadilar.⁹ Masalan, Hindistonda ushbu ijtimoiy tarmoq eng diqqatga

⁸Михаил Михайлович Филиппов-Готфрид Лейбниц. Его жизнь, общественная, научная и философская деятельность. 1893.138-с.

⁹

sazovor hisoblanadi, bu yerda Bosh vazir Narendra Modi an’anaviy ommaviy axborot vositalarini Twitter orqali chetlab o’tib, bayonotlar yoki e’lonlar qilish, xoh saylov natijalari kuni jamoatchilikka minnatdorchilik bildirish, xoh halok bo’lganlarning oilalari va qurbonlariga hamdardlik bildirish uchun foydalanadi. Shu bilan birga, Ruanda prezidenti Pol Kagame va Ekvador prezidenti Rafael Korrea kabi boshqa rahbarlar Twitterning umumiy foydalanuvchilarining tvitlariga to’g’ridan-to’g’ri javob berishadi.¹⁰

Ko’pgina jahon yetakchilari Twitterda virtual diplomatik tarmoqlarni yaratib, bir-birini kuzatib bormoqdalar, ular orqali bir-birlari bilan norasmiy va shaxsiy to’g’ridan-to’g’ri xabarlar orqali suhbatlashishlari ham mumkin. Bu faqatgina vaziyatning birgina tomoni xolos.

Raqamli diplomatiya muhokamasi hali o’zining boshlang’ich bosqichida, lekin u so’nggi yillarda jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Masalan, Yevropada raqamli diplomatiya bo’yicha Stokgolm tashabbusi¹¹ 2014-yil yanvar oyida boshlangan va diplomatlar duch keladigan muammolarga raqamli yechimlarni izlash uchun diplomatlar va texnologiya sanoatini birlashtirgan tashabbus hisoblanadi. Yana bir forum - davlat siyosati bo’yicha maslahatchi va texnolog Gökhan Yücel tomonidan asos solingan global raqamli diplomatiya tadqiqot va o’qitish instituti Yeni diplomacy hisoblanadi. Raqamli vositalarga dastlabki bog’lash vazifasini o’tovchi kompaniya sifatida Gateway House ushbu muhokamaga qo’shiladi.

Bu an’anaviy diplomatiyaning boshqa vositalar bilan davom etishi yoki davlatlar va jamiyatlar o’rtasidagi ko’p asrlik munosabatlarning tubdan uzilishimi? 2002-yilda Davlat departamenti ishchi guruhi elektron diplomatiya to’g’risida izlanish olib borish boshlandi. Bu sohadagi ilk dasturlar 2002-2003-yillarda kichik Jorj Bushning Prezidentlik davrida tashviqot ishlarining an’anaviy vositalar hisoblangan radio va televedeniyedan internetga ko’chishi bilan rivojlanishni boshlagan.

¹⁰

h
h
t
p
p
w
w

2006-yilda esa Davlat kotibi Kondoliza Rays tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilarning AQSh haqidagi ma'lumotlar va dezinformatsiya postlari monitoringi bilan shug'ullanadigan mutaxassislardan iborat Raqamli hamkorlik guruhi tashkil etilgan. O'sha vaqtning o'zidayoq Davlat departamentining rasmiy blogi va hukumat portali ochilgan.

2009-2011-yillarda AQSh Davlat departamentida siyosiy rejalashtirish bo'limi direktori Enn-Meri Sloterning fikrlariga ko'ra, nisbatan soz va tarmoqlangan axborot kanal va kommunikatsiyalariga ega davlatlar kunning global mavzusini qo'ya olish imkoniga egadirlar.

Hozirda dunyo bo'ylab turli davlat rahbarlari, vazirlik va tashkilotlari, siyosiy arboblarning rasmiy sahifalari ijtimoiy tarmoqlardagi ijtimoiy fikrni o'z manfaatlari, siyosiy qarashlari ta'sirida ushlab turibdi.

Asosan Twitter tarmog'ida «raqamli diplomatiya» va bahslashuvchi tomonlarning munozarasiga «tviplomatiya» (Twiplomacy) atamasi bilan ta'rif beriladi.¹²

Bugungi kunda Twitter va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy tasdiq belgisiga egalik, postlardagi yagona tartib va faollik bo'yicha AQSh, Kanada, Turkiya, Hindiston, Rossiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Eron Islom Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi, Fransiya va ayni kunlarda Venesuela siyosatchilari yetakchilik qilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarning demokratiya tamoyillariga amal qilishga intilayotganiga qaramasdan bugungi kunda Internet tarmog'i auditoriyasi uchun yangiliklar yaratuvchi sifatida davlatlar asosiy o'rin egallaydi. Amaldagi prezidentlar, bosh Vazirlar, parlamentlar rahbarlari va boshqa davlat rasmiylaring Twitter platformalarida mingdan ortiq hamda Facebook platformasida 700 dan ortiq xususiy profillari mavjud bo'lib, bir milliarddan ko'proq sonli a'zoga ega bo'lgan auditoriyaga doimiy ma'lumot tarqatishni amalga oshiradi. Davlat organlari va tegishli bloggerlarning yuz minglab

¹²Checkel, Jeffrey T. (1999) 'Norms, Institutions, and National Identity in Contemporary Europe', International Studies Quarterly, 43(1): 83-114

profillari, raqamli diplomatiya ishtirokchilarining xalqaro radioeshittirish kanallari faoliyati milliy xavfsizlik va tashqi siyosat maqsadlariga erishish uchun axborot kompaniyalarini amalga oshirishga qaratilgan. Shu o‘rinda davlatlar rahbarlari tomonidan yuritiluvchi ijtimoiy tarmoqlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, birgina Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi davlat rahbarlarining faollik darajalari quyidagicha:

1. Eng ko‘p muloqot qamroviga ega 50 dunyo yetakchilari-1-o‘rinda AQShning sobiq prezidenti Donald Tramp, 229 mln foydalanuvchi;
2. Eng ko‘p muloqot qamroviga ega (bir postga nisbatan)-1-o‘rinda Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi, 1056992 foydalanuvchi;
3. Eng faol 50 dunyo yetakchilari (kundalik postlar soni) - kuniga o‘rtacha bir post 1-o‘rinda Bruney Bosh vaziri idorasi - kuniga o‘rtacha 17 post.¹³

Diplomatlar va dunyo yetakchilari raqamli tizimga o‘tishmoqa Yangi Twitplomacy rasmiy saytining tadqiqotlariga ko‘ra, barcha davlat rahbarlarining 67% dan ortig‘i va 3500 dan ortiq elchi va elchixonalar Twitterda akkauntlariga ega va ular ijtimoiy tarmoqlarda o‘zlarining mamlakatlarida amalga oshirilayotgan ishlar haqida keng ommaga xabar berib kelishmoqda.¹⁴

Yuqorida raqamli diplomatiyaning bugungi kungacha qanday bosqichlardan o‘tganligi haqida ko‘rib chiqilgan edi. Endi ushbu diplomatik yo‘nalishning evolyutsiyasi va hozirgi ko‘rinishga kelgunga qadar qilingan ixtirolar va to‘g‘ridan to‘g‘ri sohada yangilanishga sabab bo‘lgan ixtirolar va yangilanishlarni tahlil qilish o‘tish lozim:

1. **1984 yil:** “Kompyuterlashgan dunyoda xalq diplomatiyasi bo'yicha 1 tahlil”. Allen C.Hansen tomonidan yozilgan “Kompyuter asrida davlat diplomatiyasi” Amerika Qo'shma Shtatlari Axborot Agentligi (UEIA) tomonidan amalga oshirilgan xalq diplomatiyasini o‘rganishga qaratilgan adabiyotlardan biri;

¹³ <https://m.kun.uz/news/2019/02/02/raqamli-diplomatiya-va-mamlakat-brendi-ijtimoiy-tarmoqlar-ozbek-siyosatchilariga-kerakmi?>

¹⁴ <https://www.twiplomacy.com/archive-twiplomacy>

2. **1994-yil:** Hukumat rahbarlari o‘rtasida birinchi rasmiy elektron pochta almashinuvi Karl Bildt va Bill Klinton o‘rtasida bo‘lib o‘tadi. Bu 1994-yil 5-fevralda bo‘lib o‘tgan. Xabarlar esa quyidagicha:

Dear Carl:

I appreciate your support for my decision to end the trade embargo on Vietnam and thank you for all that Sweden has done on the question of the POW/MIA’s.

I share your enthusiasm for the potential of emerging communications technologies. This demonstration of electronic communications is an important step toward building a global information superhighway.

Sincerely,

BILL

Va:

Dear Bill,

Apart from testing this connection on the global Internet system, I want to congratulate you on your decision to end the trade embargo on Vietnam. I am planning to go to Vietnam in April and will certainly use the occasion to take up the question of the MIA’s. From the Swedish side we have tried to be helpful on this issue in the past, and we will continue to use the contacts we might have.

Sweden is—as you know—one of the leading countries in the world in the field of telecommunications, and it is only appropriate that we should be among the first to use the Internet also for political contacts and communications around the globe.

Yours,

CARL

3. **2003-yil: LinkedIn** ishga tushirildi. Ushbu platforma bugungi kundagi eng professional platformalardan biri hisoblanadi. Reid Xoffman SocialNet va PayPal ijtimoiy tarmoqlaridan kelgan jamoni ishga yollaydi va 6 oydan so‘ng ular LinkedIn’ni ishga tushiradi, bu esa tez orada Sequoia Capital’dan investitsiyalarni jalb qiladi.

4. **2004-yil: Facebook** tashkil etildi va **Flickr** ishga tushirildi. U ushbu vaqt oralig‘ida Garvard ijtimoiy tarmog‘i veb-saytidan global internet fenomenigacha bo‘lgan rivojlanish bosqichini bosib o‘tdi, Facebook dunyodagi eng mashhur ijtimoiy media platformasi hisoblanadi;1 milliard ro‘yxatdan o‘tgan akkauntlardan oshib ketgan va 2016-yil sentyabr holatiga ko‘ra har oyda 1,71 milliard faol foydalanuvchiga ega bo‘lgan birinchi ijtimoiy tarmoqdir.

5. **2005-yildan YouTube** jonli efirni boshlaydi. Dunyodagi eng mashhur onlayn video sayt PayPalning sobiq xodimlari Chad Xerli, Stiv Chen va Javed Karim tomonidan asos solingan. 2005-yil sentabr oyida YouTube o‘zining birinchi million hitli videosiga ega bo‘ldi va 2005-yil dekabrda rasman beta-versiyadan chiqdi.

6. **2006-yil: Twitter** ishga tushdi, YouTube Google tomonidan sotib olindi, WikiLeaks ishga tushdi. Jek Dorsining (@Jack) SMS-ga asoslangan aloqa platformasi haqidagi g‘oyasi eng yaxshi mikrobloglar sayti va raqamli diplomatiyadagi eng foydali vositaga aylanadi.

7. **2007-yil: 1-virtual elchixona** ishga tushirildi. 2007-yilda Shvetsiya yaqin orada kuchli onlayn hamjamiyatga ega virtual saytda Second Lifeda virtual elchixona ochishini e‘lon qildi. Nihoyat, Maldiv orollari virtual elchixonani birinchi bo‘lib yaratdi va Shvetsiya Maldiv orollaridan ortda qolmay unga ergashadi.

8. **2009-yil: 1-chi elchi o‘z tvitini elchi sifatida yozdi:** Arturo Saruxan, Meksikaning Vashingtondagi elchisi. U shaxsan yozgan tvit esa quyidagicha:

Great to be the 1st Ambassador to the U.S. with a personal Twitter account; a good way to talk directly to America about Mexico!¹⁵

Va ushbu yangiliklar yillar o‘tib har bir davlatning hukumat saytlari va davlat xizmatchilaridan tortib, hukumat rahbarlarigacha raqamli diplomatiyadan faol foydalanish bosqichiga yetgunga qadar davom etib kelmoqda. Shu jumladan, bugun ham electron diplomatiyaning rivojlanishi jadal davom etib bormoqda. U kirib bormagan va chetda qolgan dunyoning biron nuqtasi yo‘q. uning rivojlanishi bilan birgalikda, raqamli diplomatiyaga ham yangicha yo‘nalishlar va yangiliklar oqimining

¹⁵ <http://diplomacydata.com>

kirib kelishi uning konseptual va nazariy qarashlariga ta'sir etadigan dasturlar hayotga kelayotganligini ham alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Chunki, ushbu yo'nalish ham axborot-texnologiyalari asrida tug'ilgan va jadallik bilan rivojlanib borayotgan sohalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dunne, Tim (2001) 'Sociological Investigations: Instrumental, Legitimist, and Coercive Interpretations of International Society', *Millennium: Journal of International Studies*, 30(1): 67–91.
2. T.M. Tursunmatov. Raqamli texnologiyalarning xalqaro munosabatlarda tutgan o'rni va roli.: Article- December 2021. 721-722.
3. Bolgov R.V. «Politicheskoe znachenie texnologiy Web 2.0 (na primere deyatelnosti internet-soobshchestv). V knige «Negosudarstvennyye uchastniki mirovoy politiki: uchebnoe posobie dlya vuzov. Pod red. M.M. Lebedevoy i M.V. Xarkevicha». — M.: «Aspekt Press», 2013. 345-350.
4. Watson, Adam (1992) *The Evolution of International Society: A Comparative Historical Analysis*. London: Routledge.
5. <https://eurodomik.ru/postrojki/blez-paskal-pervaya-summiruyushchaya-arifmometr-i-summiruyushchie>
6. Михаил Михайлович Филиппов-Готфрид Лейбниц. Его жизнь, общественная, научная и философская деятельность. 1893.138-с.
7. <https://medium.com/digital-diplomacy/10thanniversary-key-moments-in-twitter-diplomacy>;
8. <https://www.presidency.ucsb.edu>;
9. Checkel, Jeffrey T. (1999) 'Norms, Institutions, and National Identity in Contemporary Europe', *International Studies Quarterly*, 43(1): 83–114